



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATI DA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALAR



2024- YIL YANVAR – SENTABR
(dastlabki ma'lumot)

Asosiy kapitalga investitsiyalar

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida jami 19161,4 mlrd so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 129,4 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 79,2 % yoki 15173,6 mlrd so'm investitsiyalar jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 20,8 % yoki 3987,8 mlrd so'm moliyalashtirildi.

Shuningdek, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 1076,2 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 18085,2 mlrd so'm investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi

129,4%

Jami asosiy kapitalga
investitsiyalar
19161,4 mlrd so'm

119,1 %

To'g'ridan-to'g'ri
xorijiy investitsiyalar
7803,5 mlrd so'm

Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy
investitsiya va kreditlar
6009,5 mlrd so'm

2,3 m.

Korxona mablag'i
2280,3 mlrd so'm

137,1%

99,0 %

Tijorat banklari kreditlari
va boshqa qarz mablag'lari
284,3 mlrd so'm

110,5 %

Aholi mablag'lari
1707,6 mlrd so'm

O'zbekiston Respublikasi
kafolati ostida xorijiy kreditlar
226,8 mlrd so'm

47,8 %

Respublika budjeti
718,0 mlrd so'm

47,6 %


32,2 %

Suv ta'minoti va kanalizatsiya
tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi
59,7 mlrd so'm

35,4 m.


Tiklanish va taraqqiyot
jamg'armasi
71,7 mlrd so'm

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi, mlrd so'm



So'nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli uch iyunaga ko'payib, o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda.


Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlari dinamikasi, % da




So'nggi besh yil ichida o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, ular o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib, 2020-yildagi 86,6 % dan 2024-yilga kelib 129,4 % ga yetdi.

* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar, % da




Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari, % da




* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Andijon viloyatida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar, % da



Yillar kesimida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari, % da



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar va o'sish sur'atlari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 151,1 % ni tashkil etdi.

* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 2280,3 mlrd so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 11,9 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,9 % i yoki 1707,6 mlrd so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 7803,3 mlrd so'mni tashkil etdi va jami investitsiyalardagi ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,2 % punktga ko'payib, 40,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 284,3 mlrd so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 1,5 % ini tashkil etdi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 226,8 mlrd so'm (1,2 %), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 6009,5 mlrd so'm (31,4 %), Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 71,7 mlrd so'm (0,4 %), Respublika budjeti 718,0 mlrd so'm (3,7 %), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 59,7 mlrd so'm (0,3 %) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.



Andijon shahri



Xonobod shahri



Oltinko'l tumani



Andijon tumani



Baliqchi tumani




Bo'ston tumani



Buloqboshi tumani






Jalaquduq tumani




Izboskan tumani




Ulug'nor tumani





Shahrixon tumani



Paxtaobod tumani




Xo'jaobod tumani



- **Asosiy kapitalga investitsiyalarning statistik hisobi,** qo'shimcha qiymat solig'ini qo'shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to'lov amalga oshirilgan paytdan qat'i nazar, haqiqatda o'zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.
- Andijon viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 8914,2 mlrd so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 46,5 % ini tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari bo'yicha 8538,4 mlrd.so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 44,6 %) va boshqa xarajatlarga 1708,8 mlrd so'm (8,9 %) o'zlashtirildi.
- Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Marxamat tumanida kuzatildi – 73,0 % yoki 442,0 mlrd so'm.
- Asosiy kapitalga investitsiyalar umumiy hajmida mashina va uskuna sotib olishga yo'naltirilgan investitsiyalarning eng yuqori ulushi Asaka tumanida kuzatilib, 67,5 % ni yoki 2522,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da



■ Qurilish-montaj ishlari


■ Mashina, uskuna, inventar

■ Boshqa xarajatlar

Joriy hisobot davrida yangi qurilishga yo'naltirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 10028,7 mlrd so'mga yetdi hamda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 52,3 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 7598,2 mlrd so'mni tashkil etdi va viloyatdagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 39,7 % ini tashkil etdi. Qolgan 8,0 %, ya'ni 1534, mlrd so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

Asosiy kapitalga investitsiylarning takror ishlab chiqarish tarkibi, jamiga nisbatan % da




■ Yangi qurilish ■ Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya ■ Boshqa yo'nalishlar

Statistik tahlilni o'tkazish maqsadida asosiy kapitalga investitsiyalar quyidagi asosiy kesimlarda: qo'yilma turlari, texnologik, takror ishlab chiqarish tarkiblari, iqtisodiy faoliyat turlari, moliyalashtirish manbalari bo'yicha shakllanadi.


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALAR

Jami investitsiyalar hajmidagi ulushi



Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, % da





To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 7803,5 mlrd, so'mni yoki, 2023-yilning mos davriga nisbatan 119,1 % ni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 226,8 mlrd, so'mni yoki, 2023-yilning mos davriga nisbatan 47,8 % ni tashkil etdi

Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar va boshqa xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 6909,5 mlrd, so'mni yoki, 2023-yilga nisbatan 2,3 m. ni tashkil etdi

7932,0
mlrd so'm
Xorijiy investitsiyalar




6107,9
mlrd so'm
Xorijiy kreditlar

Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd so'm

	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
Andijon viloyati	7932,0	226,8	5881,1
Andijon sh.	357,6	85,9	603,5
Xonobod sh.	264,0	-	179,8
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	244,4	-	14,9
Andijon	1 311,0	22,1	1 324,2
Baliqchi	0,0	-	680,1
Bo'ston	12,6	0,7	364,8
Buloqboshi	2 282,2	55,7	26,7
Jalaquduq	408,5	-	-
Izboskan	205,3	-	277,1
Ulug'nor	333,3	8,8	7,9
Qo'rg'ontepa	125,9	-	378,9
Asaka	1 637,3	-	1 026,7
Marhamat	81,9	24,4	315,8
Shahrixon	316,1	-	138,5
Paxtaobod	337,1	29,3	59,9
Xo'jaobod	14,8	-	482,3

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar – ustav kapitalda 10 foizdan kam bo'lmagan ulushga ega xorijiy investorning moliyaviy va nomoliyaviy qo'yilmalaridir.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalar **iqtisodiy faoliyat turlari** bo'yicha amaldagi faoliyat turlari tasniflagichi IFUT-2 ga asosan taqsimlanadi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida Andijon viloyatida ishlab chiqarish sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar salmoqli o'zlashtirilib, 9152,9 mlrd so'mni yoki jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 65,2 % ini tashkil etdi.

Elektr va gaz bilan ta'minlash faoliyat turida bu ko'rsatkich 2408,8 mlrd so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 17,2 % ini qayd etdi.



Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o'z mablag'lari, qarz mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'larni investitsiya ko'rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta'minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

	Turar- joylar, ming kv.m	Ulardan: qishloq joylardan ming kv.m	Suv tarmogʻi, km	Gaz tarmogʻi, km
Andijon viloyati	1089,2	744,4	-	-
Andijon sh.	176,7	-	-	-
Xonobod sh.	6,7	-	-	-
<i>tumanlar:</i>				
Oltinkoʻl	96,8	96,3	-	-
Andijon	63,5	62,1	-	-
Baliqchi	59,9	41,1	-	-
Boʻston	24,4	21,2	-	-
Buloqbohi	38	28,1	-	-
Jalaquduq	61,5	56,3	-	-
Izboskan	32,8	32,8	-	-
Ulugʻnor	20,4	20,4	-	-
Qoʻrgʻontepa	77,8	50,8	-	-
Asaka	154,4	126,3	-	-
Marhamat	58,2	43,3	-	-
Shahrixon	64,3	48,0	-	-
Paxtaobod	113,7	86,1	-	-
Xoʻjaobod	40,1	31,6	-	-

Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi
Tel. 74 228-29-37